
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 7-8

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



Philological research: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 7-8

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, *iqtisod fanlari doktori, professor*

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, f.f.f.d. *(PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Amonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.08.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, *доктор экономических наук, профессор*

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*

Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*

Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*

Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*

Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*

Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*

Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нормат Юлдашев, *к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шоира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.08.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, *doctor of economic sciences, professor*

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, PhD, *associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Amonturdieva, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

МАМАТОВ АБДИ ЭШОНҚУЛОВИЧ
Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради? 7

ASHIRBOYEV SAMIXON
«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi mazmuni uyg‘unligi 10

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida 14

МАМАТОВ АБДУҒОФУР
Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи 18

ELTAZAROV JO‘LIBOY
Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasina göre yorumlanmasi üzerine 24

ISMOILOVA DILRABO MUHAMMAD QIZI,
HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXONOVICH
Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos 30

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH,
MAHMADIYEV SHAVKATJON SUYUNQULOVICH
Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida 34

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA,
JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA
Baho va darajalanish munosabati 38

ABDIYEV MURODQOSIM
«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida 44

МЕНГЛИЕВ БАХТИЁР РАЖАБОВИЧ
Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари 50

SHUKUROV OTABEK ULASHEVICH
Globallashuv sharoitida milliy til masalalari 56

FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA
Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar 59

DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI
Qadimgi turkiy tildagi markaziy hokimiyat bilan aloqador ayrim
harbiy unvonlar xususida 63

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOEVICH
Qishloq turizmga oid terminlarning lingvistik tahlili 67

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA
Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar 70

TEMIROVA KAMOLA
«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da berilgan
gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi 74

KURBONMURATOV ABROR
Ekstremistik matnda muallif belgilari 80

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH
Taqlid so‘zlar orqali ifodalangan tovush va
harakat-holatning davomiylik semasi
(Tog‘ay murod asasrlari misolida) 83

CHORIYEVA CHAROS SALOMOVNA
Diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika:
tasnif va talqin muammolari 86

NURIDDINOVA NAFISA MUXIDDIN QIZI
O‘zbek tilida ayrim uzumchilikka oid leksikaning lingvokulturema sifatidagi talqini 89

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILIDA AYRIM UZUMCHILIKKA OID LEKSIKANING LINGVOKULTUREMA SIFATIDAGI TALQINI

Nuriddinova Nafisa Muxiddin qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi bosh o'qituvchisi

Bugungi kun tilshunoslik ilmida yangidan yangi sohalarning vujudga kelishi, matn lingvistikasining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal sur'atda rivojlanmoqda. Til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya masalalari ham hozirgi kunda deyarli barcha tadqiqotchilar e'tiborini tortayotgan, ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, ammo to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

Madaniyatning tilda aks etishi, til va madaniyatning bog'liqligi muammosi bilan bog'liq masalalarning asosi yaqin vaqtlardangina boshlandi. V.V.Vorobyev, V.M.Shaklien, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini ularning asosi sifatida qayd etish mumkin. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida fikr yuritilganda, ko'plab tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboltga borib taqalishini ta'kidlaydilar.[1]

XX asr boshlariga kelib jahon tilshunosligining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylangan lingvokulturologiya uchun taraqqiyotga nisbatan madaniyatni o'rganish muhimroq sanaladi. V.N.Teliya bu borada quyidagilarni qayd etadi: «Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandir»[2] Jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida lingvokulturologiyaning rivojlanishini yuksak baholash bilan birga, bu kabi yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida ham muhim o'rin tutmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalish pirovardida qator ishlar olib borilayotganligi e'tiborga molik. Xususan, madaniyatning tilda aks etishi va lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi kabi bir qator masalalar o'zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning «O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish», N.Mahmudovning «Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab», N.Saidrahimovaning «Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar», «Lingvokulturologiyaning komponentlari», nomli maqolalarini, SH.Maxmaraimovaning «Lingvokulturologiya» nomli o'quv qo'llanmasi kabi tadqiqot materiallarini alohida qayd etishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshlagan lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar bugungacha juda asosli mulohazalarni talab qilib kelmoqda. Professor N.Mahmudovning «Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab…» nomli maqolasini ham bu boradagi muammolarni chuqur yoritib beruvchi jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin[3]. Bu borada o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib beruvchi tilshunos olima D.Xudoyberganova tomonidan «Matnning antroposentrik tadqiqi» monografiyasi ham yaratildi. Unda matn yaratilishida lingvomadaniy birliklarning o'rni o'xshatish, metaforalar, jonlantirishlar asosida yaratiluvchi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berildi.

Milliy til hodisalari sifatida mana shunday jarayonlarda yuzaga keluvchi lingvokulturemalar o'z navbatida hozirgi kun tilshunosligida yechimini kutayotgan dolzarb maslalardan biridir.

Kelib chiqish tarixi ingliz va lotin tillariga borib taqaluvchi lingvokulturologiya atamasi til va madaniyat aloqadorligining hosilasidir. Chunki «Lingvo» so'zi til, tilga oid ma'nosida bo'lsa, «kultura» madaniyat deganidir. «Logos» so'zi esa yunoncha «ta'limot» demakdir.

Professor O'.Yusupov bu tushunchalarga quyidagicha izoh beradi: «Lingvokulturema – o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi.

Lingvokulturemalar madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolarni qamrab oladi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi». Demak, lingvokulturema o'zining konseptdan mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, linvokultu-

[1] Маслова В.В. Лингвокултурология в системе гуманитарного знания / Киритика и семиотика. – М., 1987. - С. 15.
[2] Телия В. Н. Русская фразеология. – М., 1982. – С. 20-25.
[3] Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab…// O'zbektili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - №5. – B. 3-16.

rulogiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifadir. Olim fikricha, «lingvokulturema» tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali. «…Zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni damda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatning asosiy va muhim tushunchalarini harakatga keltiruvchi, ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etuvchidir»[1].

Bizga ma’lumki, inson aqliy va jismoniy mehnatining sintezi asosida yuzaga keluvchi har qanday moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari bir-birini to‘ldirib turadi. Zero voqelikni badiiy aks ettirish va o‘zlashtirish vositasi ma’naviy madaniyatdir. Dunyo va insonlarning moddiy hayot sharoitlari urf-odat, rasm-rusum, an’ana, marosim va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aynan moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ma’naviy madaniyat mavjudligi bilan belgilanadi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. O‘zaro doimiy ta’sirlashish holatida bo‘lgan til va madaniyat linvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilar ekan, turli til birliklari bo‘lgan mif, afsona, folklor, poetik va prozaik matnlar, metaforalar, frazeologizmlar hamda ramzlar uning tadqiqot manbalari sifatida ayon bo‘ladi. Bu paytda lingvokulturologik sifatida frazaeologizm, matal va maqollarga aylanishi mumkin.

Har qanday davrda til va madaniyat tushunchalari ajralmas va bir-birini doimo taqozo etadi. Til o‘zining har jabhasida madaniyatni aks ettirar ekan, madaniyat ham shu o‘rinda tilsiz namoyon bo‘la olmaydi. Insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o‘z aksini topgan til madaniyati va nutq madaniyati xususiyatlari, albatta, milliy ma’naviyat, uning yuzaga chiqishida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunga kelib matn muammosining o‘rganilishi bilan bog‘liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi bir qator yo‘nalishlar qo‘lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko‘rmoqdalar. Lingvokulturulogiya ham ana shunday yangi yo‘nalishlardan biri sanaladi va u bevosita madaniyat, shu til vakilining dunyoqarashi, lisoniy va ong osti bilimi bilan bog‘liqdir.

Til egasi bo‘lmish xalqning o‘ziga xos madaniyati va mentalitetini ko‘rsatishda maqollar paremiologiya sohasining bir bo‘lagi o‘laroq lingvokulturema sifatida juda chuqur ma’no ifodalaydi. Demak, biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo‘llaniluvchi leksemalar tilda o‘z qiyofasini yaratar ekan, xalqlarning milliy mentalitetini ko‘rsatishda maqollarda ishtirok etmay qolmaydi.

Bizning fikrimizcha, paremiyalar har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan og‘zaki shakli bo‘lib, ixcham va metaforalarga boy bo‘lgan, insoniyat tomonidan to‘plangan chuqur boshlang‘ich bilimlarni ifodalaydi. Bu borada, mazkur tadqiqot obektimizning bir qismi bo‘lgan uzumchilik sohasiga oid ba’zi leksikalar o‘zbek xalq maqollarida ham, shubhasiz, aks etadi. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi[2]. Xalqning milliyligi, urf-odatlari, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o‘zida aks ettiruvchi maqollar xalq og‘zaki ijodining mahsulidir.

Markaziy Osiyoning, qolaversa, O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligiga oid so‘zlarning o‘rganilmasdan kelinishining asosiy sabablaridan biri sobiq sho‘rolar davrida xalqimizning o‘tmish merosini o‘rganishga qo‘yilgan cheklovlardir. Mustaqillik esa ularni qayta tiklab, kelgusi avlod uchun saqlanishi va rivojlantirish zarur ekanligining vaqti kelganligini ko‘rsatdi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, uzumchilik sohasiga oid so‘zlarning xilma-xilligi vaqt o‘tishi bilan turli xil tadqiqot nazariyalari va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalangan holda ma’lum bir konseptual-terminologik vosita sifatida shakllanishi, taraqqiy etishi mumkin. Bu xilma-xil ma’nolarning yuzaga chiqishida maqollar, udumlar, urf-odatlar, metaforalar, xalq qo‘shiqlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero ular o‘ziga xos lingvokulturologik jihatlarni yoritib beruvchi muhim vositalardan sanaladi. Shu sababli biz izlanishimizning obyekti sifatida ularni tahlilga tortishga harakat qilamiz. Bunday tahlillarning ayrimlarini quyidagicha izohlaymiz:

Bir mayizni qirq kishi bo‘lib yeydi. Ahillik, inoqlik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan eng oliy xislatlardan biridir. Bir mayizni qirqqa bo‘lib yeyishlik, xalqimizga xos insoniy fazilatlardan o‘zi yemay o‘zgaga ilinishlikdir. Aynan bu maqolda *mayiz* leksemasi keltirilganligining mohiyati esa uzum mevasi quritilgandan so‘ng hajman kichrayib, shirasi yanada kuchayadi. Lug‘atlardagi uning quyidagicha ta’rifi fikrimizni isbotlaydi: Mayiz – oftobda yoki soyada quritilgan uzum. Qora mayiz.[3]. Keltirilgan maqolda juda mayda bo‘lsa ham birgina mayizning ahillik bilan qirqqa bo‘linishligi ajdodlarimizdan singgan fazilatdir.

O‘zbek tilida uzum navlari nomlaridan biri bo‘lgan «charos» terminiga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: «Charos – o‘rtapishar,

[1] Воробьев В.В. Лингвокултурология. Теория и метод. – М., 1997.

[2] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2013. – B. 5.

[3] Jabborov X. Qishloq xo‘jalik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Qarshi, 2020. – B. 137.

yumaloq qora uzum…»[1]. Shuningdek, charos uzumi oliy navli turlarga mansub bo‘lganligi uchun uzumlar ichida saralaridan biridir. Xalqimiz og‘zaki ijodida «Itimning bog‘i yo‘q, yegani qora charos» maqolida bu atama o‘zgacha ma’no kasb etgandek go‘yo, ya’ni ayrim laganbardor insonlarning halol mehnat evaziga emas, noqis, o‘g‘rilik, egrilik yo‘llari bilan hayot kechirishi, albatta, turmushida vaqtinchalik rohat-farog‘at, eng sara narsalarning egasi bo‘lishi mehnatda ezilib, qo‘llari qadoq bo‘lgan mazlum xalq tomonidan achinish hissi bilan ifoda etilmoqda. Yana bir «Kishining bolasiga kishmish bersang ham turmas» maqolida esa eng shirin ta’mli uzum navi nomi bo‘lgan kishmish atamasi shirinlik ma’nosida qo‘llanilmoqda. O‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan ota-ona, farzand o‘rtasidagi mehr-muhabbat, sodiqlik kabi milliy qadriyatlar ana shu maqolda aks etmoqda.

Tilda mavjud bo‘lgan leksema o‘sha xalqning turmush tarzidan, ya’ni xalq tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu bevosita lingvokulturema sifatida maqollarda, tez aytishlarda, xalq qo‘shiqlarida, metaforik birliklarda aks etmasdan qolmaydi. Xususan, «Sharob uzumdan rang olar, odam odamdan», «Bir tup tok eksang, bir tup tol ek», «Chillaki chillakini ko‘rib chumak uradi» kabi xalq maqollari; «Kishmish qishda pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish» kabi bir qator tez aytishlar, shuningdek «Bizning yorning yemishi katta bog‘ning kishmishi» singari xalq qo‘shiqlarida ham o‘zining nozik ma’no ottenkalari bilan lingvomadaniy tuzilmalarda ishtirok etadi. Shuningdek, «charos ko‘z» metaforasi ko‘rganda ko‘zni quvnatib turuvchi charos uzum donasidan ilhomlanib olingan chiroyli ko‘zlarga nisbatan ishlatiladi, ya’ni izohli lug‘atda keltirilgan «…qop-qora, yumaloq uzum» ma’nosiga aynan mos tushadi.

Tilimizda mavjud bo‘lgan uzumchilik sohasiga mansub bo‘lgan ayrim leksemalarning o‘ziyoq ko‘pma’nolilik kasb etib, mazmun jihatidan rangorang jozibasini, bo‘yoqdorligini ko‘rsatib beradi. Bu esa boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan ba’zi qirralarni yoritib berishda va leksik uslubiyatda juda muhimdir. Bu borada o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf-odatlar, udumlar ham lingvomadaniy jihatlarning oltin qirralarini ko‘rsatib berishda muhim rol o‘ynaydi, albatta. Ba’zi kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, uzumchilik sohasi leksikasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda va ularni terminolgik jihatdan boyitishda bir qator udumlar, urf-odatlarning ham mavjudligi quvonarli holdir.

An’anaga ko‘ra *hashar* o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan udum sanaladi. Arabchadan olingan *hashar* so‘zi «yig‘in, to‘da; yig‘ilish anjuman» ma’nolarini anglatadi. Biror ishni bajarishda ko‘pchilikning ixtiyoriy, beg‘araz ishtiroki, ko‘magi[2]. Bizga ma’lumki, hashar udumi qishloq xo‘jaligining ayrim sohalarida mavjud va bu aynan uzumchilik sohasini ham chetlab o‘tmagan, albatta. Uzumlar hosilga kirganda yig‘im-terim ishlarini tezlashtirish uchun birgalikda, ko‘pchilik bilan, ayniqsa, hashar qilayotgan kishining qavm-qarindoshlari, yor-birodarlari hamda qo‘ni-qo‘shnilaridan iborat bo‘lgan yig‘in o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan udumlardan sanaladi. Izlanishlarimizda hasharda boshchilik qiluvchi kishi *hasharboshi*, unda qatnashuvchilar uchun pishirilgan ovqat *hasharosh*, yordam berish uchun kelgan kishilar *hasharchi* nomlari bilan yuritilishining guvohi bo‘ldik. Hashar qilgan inson ko‘p hikmatlarning guvohi bo‘lar ekan, do‘stlarining sadoqati, mehribonligiga amin bo‘ladi. Bu jarayonda ahillik, birdamlik kabi samimiy tuyg‘ular o‘z ifodasini topadi. «Hashar qildim – uy qurdim, bunda ko‘p hikmat ko‘rdim» maqoli ham fikrimizga hamohang go‘yo. Demak, xalq udumlarida, maqollarida etalon sifatida olingan hashar so‘zi lingvomadaniy birlikdir.

Yana bir odat tusiga kirib qolgan aynan uzumlar hosilini yig‘ib olish jarayonidagi *loshlakka chiqish* udumi ham lingvokulturema sifatida o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniyatini yuzaga chiqaradi. Bu udum toklar uchun qishki tayyorgarlikdan oldin ko‘z ilg‘anmay qolib ketgan shingillardan iborat uzumlarni yig‘ish uchun, asosan, kichik yoshdagi bolalar (ba’zan kattalar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda bolalar tomonidan turli o‘yinlar, ajoyib suhbatlar orqali qiziqarli amalga oshirilishi haqida tadqiqotlarimiz jarayonida kuzatdik. Lug‘atlarda esa loshlamoq so‘ziga quyidagicha ta’rif keltirilgan: *Loshlamoq* – polizda o‘stirilgan qovun, tarvuz qovoqlarni yig‘ishtirib payxon qilmoq; *Loshak* – polizda kuz oxirida pishib ulgurmay qolgan kichik qovun, tarvuz[3]. Demak, *loshlamoq* so‘zining tahlili qatorida *uzumlarni oxirgi hosilini yig‘ib olish jarayonidagi odat* sifatidagi tahlilini ham kiritsak bo‘ladi, bizningcha. Chunki yuqoridagi ma’noda faqat poliz ekinlariga nisbatan talqini keltirilgan. Kuzatishlarimiz asnosida esa bunday atamalar tahlili xalq orasidagi leksikalarning turli ma’no ottenkalarini yoritib berishda asqatadi, albatta. Shuningdek, bunday konseptlar lisoniy madaniyatni ko‘rsatib beruvchi muhim omillardandir.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, ma’lum bir sohaga oid lingvokulturemalarni tahlil etishda til va madaniyat munosabati xarakterini to‘g‘ri belgilash juda muhimdir. Xususan, bog‘dorchilikning juda ko‘p sohalari qatorida bo‘lgan uzumchilikning leksik qatlamini o‘rganish ham shunday tahliltalab masalalardan biri desak, yanglishmaymiz. Bunday jarayonda tah-

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

[2] Jabborov X. Qishloq xo‘jalik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Qarshi, 2020. – B. 101.

[3] Jabborov X. Qishloq xo‘jalik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Qarshi, 2020. – B. 114.

lilga olinayotgan har bir so‘z, uning o‘z va ko‘chma ma’nolari to‘qnashtirilib, natijada kutilmagan yangi ma’no hosil bo‘ladi. So‘zlarning mazkur nozik ma’no ottenkalari badiiy adabiyotda ham muhim tasviriy vosita sifatida keng ishtirok etadi. Ayniqsa, xalq madaniyatini chuqur va tafsilotlar bilan o‘rganish jarayonida, til madaniyati va nutq ma’naviyatining serjilo xususiyatlari nutq egalarining lisoniy kognitiv faoliyatida o‘z aksini topadi. Tahlillarimizda esa paremiologik manbalarning ham bu borada muhim omil ekanligining guvohi bo‘ldik.

Asrlar mobaynida takomillashib kelgan uzumchilik sohasiga oid ko‘plab tushunchalar allaqachon xalq shevalarida, uning leksik manbasida o‘z ifodasini topganligi biz tahlilga tortayotgan lingvokulturemalarning mohiyatini, xususiyatlarini ochib berishga katta xizmat qiladi. Ma’lum bir xalqning urf-odat va an’analari, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, xo‘jalik muhiti bilan tutash milliy-madaniy xususiyatlari lingvokulturemalar semantikasida aks etishi sababli ular bilan bog‘liq muammolar tadqiqotchilarni uzoq yillardan buyon qiziqtirib kelmoqda. XIX asrda til hodisalarini antropologik paradigmaning hosilasi sifatida o‘gana boshlagan lingvokulturologiya ko‘proq amaliy ahamiyatga egadir. «Lingvokulturema» terminini sohalararo kompleks birlik sifatida ilk bor qo‘llagan V.V. Vorobyev talqiniga ko‘ra dialektik birlik bilan birga kulturemaning tildan tashqari mazmuni, ya’ni madaniy tushuncha komponenti ham qo‘shilib kompleks ma’no ifodalaydi.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilm-fan yutuqlari muomalada bo‘lgan so‘zlar, atamalar bilan bir qatorda ko‘plab xalqaro va xorijiy terminlarning qo‘llanilish jarayonini tezlashtirdi. Ularni esa bilib-bilmay turli xil ma’noda talqin qilinishi amaliy faoliyatda muayyan tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli ham sohaviy atamalarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning izohli lug‘atlarini sistemalashgan holda yaratish, shuningdek tilshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha atroflicha tahlil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Aytilganidek, hozirgi kunda lingvokulturologiyadagi izlanishlar ancha ilg‘or, ammo bu boradagi ko‘proq tadqiqotlar masalasiga nazariy jihatdan yondashilgan. O‘zbek tilshunosligida sohaviy leksikaning lingvokulturologik tahlillari amaliy tomonlama o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Chunki til va madaniyatning uzviyligi xalq orasida, uning ulkan qadriyatlari jamlangan leksik qatlamini izlash orqali yangi jihatlarni o‘rganib, tahlil qilish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, ma’lum bir sohaviy leksikadagi tushunchalarning tahlili, xususan, uzumchilik sohasiga oid so‘zlarni to‘plash, dialectal variantlarini jamlash,ularni ilmiy qiyosiy o‘rganishlar asosida tartibga solish va keng jamoatchilikka yetkazish tilshunosligimiz rivoji uchun muhim ahamiyatga egadir. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda rivojlantirish milliy o‘zligimizni anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi, shubhasiz.

Rezyume. Ushbu maqolada uzumchilik leksikasiga asoslangan lingvokulturologiya (lingvistik madaniyat) xususida keng fikr yuritiladi. Maqola ayrim shu sohaga oid leksikaning termin sifatida izohli lug‘ati bilan tanishtirib, o‘zbek tilidagi bir nechta lingvokultrologiyaga asoslangan ifoda planini tahlil qiladi. Shuningdek, uzumchilikka oid terminlarning aynan bizning madaniyatdagi o‘ziga xos xususiyatlarini va mazmunini yoritib o‘tadi hamda bu masala bo‘yicha turli namunalar ketiriladi. Keltirilgan nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

Resume. This article provides detailed information about based on the lexico of viticulture linguoculturology (linguistic culture). The article by introducing some of the lexicon related to this field with an explanatory dictionary as a term, analyzes theexpression plan based on several linguocultural studies in the uzbek language. Also illuminates the specific characteritics and meanng of viticultural terms in our culture and various examples are given on this issue. The presented theories are explained through examples.